ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(3)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 484 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixolingvistik jihatlari ..... 10
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System ..... 15
Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish ..... 21
Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich

Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati ..... 25
Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna

Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari ..... 30
Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ..... 33
Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari ..... 37
Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiova Sevaraxon Mahammadsharif qizi

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish ..... 41
Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna

Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni ..... 45
Sh. S. Kurbanova

Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar ..... 49
Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna

Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатриированными из ЗОН вооружённых конфликтов ..... 53
Юлдашев Санжар Рузимуродович

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari ..... 57
Mamatova Karomat Ilhomjonovna

Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ..... 61
Asilova Sanobar Xatamboyevna

Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari ..... 66
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi

Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish ..... 69
D. Y. Pulatova, G'. R.Berdiyev

Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri ..... 76
Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari ..... 81
Ismonov Turgunpulat To'lqinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi ..... 84
Maripova N. X.

Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi ..... 88
Nurova Malika Abduzairovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development ........ 92
Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna

Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari ........ 97
Raximova Gulxayo Alisherovna

Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati ........ 100
Shaalimov Muxtorsha Atxamovich

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari ........ 105
X. Sh. Ochilova

Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ........ 109
Xalilova Dilnoza Furkatovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari ........ 112
Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna

Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabalrning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 117
Arziyeva Visola Namozovna

Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari ........ 121
Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili ........ 125
Sharopova Durdona Azim qizi

Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari ........ 129
Tashmatova Gulzoda

Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari........ 133
To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna

Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni ........ 137
Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna

Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili ........ 142
Vaxobova Muxtabar Nurmuhammat qizi

Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish........ 146
Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari ........ 151
Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna

Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish ........ 156
Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish ........ 161
M. S. Achilova

Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi ........ 165
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi

PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish ........ 169
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari ........ 173
Gafurova Shoxista Erali qizi

O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari ........ 178
Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi

O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili ........ 181
Tursunova Dilbar Zafarovna

Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech ........ 184
Turumbetova Aygul Yusupbaevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi ........ 189
Ummatkulova Sayyora Shovkatovna

Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish ........ 191
Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov

Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi ........ 195
Ermatova Robiya Bekjonali qizi

The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education ........ 199
Ismailova Shaira Ferdausovna

Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners ........ 204
Maqsudova Gulnoz Olimovna

Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms ........ 208
Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi

Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching ........ 212
Sharipova Muhabbat Erkinovna

Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili ........ 216
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich

Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv ........ 222
Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li

O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili ........ 227
Yuldashova Dilafruz Shavkatovna

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida ........ 229
Safarova Madina Azamat qizi

Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности ........ 233
Аскарова Гулрух Оринбасаровна

Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века ........ 239
Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб

Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана ........ 242
Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari ........ 245
Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich

Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini ........ 249
Hayotova Diyora Hamid qizi

Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va epchillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi ........ 254
Iminova Z. B., Nazarova M. A.

Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar ........ 258
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna

Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari ........ 265
Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli ........ 271
Muminova Gulasal Baxodirovna

Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish ........ 275
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi

Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish ........ 280
Sadirova Kamola Giyozovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash ... 284
Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna

Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi ... 287
Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan İstanbullu

O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari ... 293
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li

Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar ... 297
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni ... 300
Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna

Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari ... 304
Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi

Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori ... 307
Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li

The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21$^{st}$-Century Skills Among EFL Learners ... 314
Axmatova Munisa Orif qizi

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi ... 320
P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari ... 326
Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari ... 330
Nurkeldi Jarasbayev

Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati ... 334
Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi

Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии ... 337
Ядгарова Озода Ибрагимовна

Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari ... 342
Yursinboyev Jaxongir Mexrojidin o'g'li

Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari ... 348
Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich

Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений ... 352
Хамроев Шохбоз Султонмуродович

Klaster metodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnli masala yechish ko'nikmasini rivojlantirish ... 356
Atoyeva Laylo Akram qizi

Ta'lim subyekti sifatida o'qituvchi va sun'iy intellektning psixologik-pedagogik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish ... 363
Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna

Research Methodologies for Examining English Texts Focused on Ecotourism Destinations ... 366
Nurbek Yavqochev

Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishida bolalar adabiyotining o'rni ... 369
Yuldoshova Mexriniso

Integrativ yondashuvning logopedik mashg'ulotlar orqali dizartriyani korreksiyalashdagi ahamiyati ... 372
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ... 378
Axmedjanov Shuhrat Boltayevich

Og'zaki nutqni baholash va rivojlantirish omillari va nutqiy vaziyatlar ... 381
G'aybulloyeva Feruza Bobir qizi

Hayotiy vaziyatlar asosida matematik tasavvurlarni shakllantirish ... 384
Raimberdiyeva Sh. N., Ismoilova M. M.

The Role of Word Formation Processes in Enriching the Vocabulary of the English Language ...................387
Qoldigiz Mirzayeva

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini psixodiagnostika qilishning nazariy va amaliy asoslari ..................391
Radjabova Dilnura Anvarbekovna

Maktabga tayyorlov yoshida aqliy tarbiyalashda didaktik oʻyinlarning oʻrni va ahamiyati.............................397
Ziyodullayeva Ruxshona Oʻral qizi, Ismoilov Bobur Tohirovich

Oʻquvchilarda tanqidiy fikrlash va axborotni saralash kompetensiyasini rivojlantirishning neyropedagogik mexanizmlari..................401
Xolmatova Saboxat Ilxomjon kizi

Akmeologik yondashuv asosida talabalarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishni takomillashtirish ...408
Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna

Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining dirijyorlik apparatini shakllantirishda qoʻllaniladigan interfaol metodlarning ahamiyati..................413
Z. A. Nuraliyeva

3-sinf ona tili darsligidagi birikuvchanlikka doir mashqlar tahlili..................417
Safarov Firuz Sulaymonovich, Hamroyeva Zahro Gʻafforovna

Лингво-дидактические требования к организации дистанционного обучения иностранному языку: цифровизация, инклюзия и мировой опыт ..................420
АзимоваСитора Рахимовна

Развитие альтруистической самоотверженности у подростков на основе прогрессии навыков позитивного мышления ..................429
Ахрарова Шоира Батыровна

“Лишний человек” и трагическое осознание своей ненужности ..................433
Мустафоева Холида Худжагелдиевна

Talaba-psixologning kasbiy muhim sifatlarini takomillashtirish amaliy ishga tayyorlik omili sifatida .............438
Nurimbetova Elmira Jumamuratovna

Texnologiya faniga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari ............441
Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich, Yaminova Nargiza Nuriddinovna

Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslari ..................444
Abdullayeva Sabohat Gʻayratullayevna

The Role of Artificial Intelligence in Enhancing English Language Teaching and Learning ..................448
Asamatdinov Alim Baxtiyarovich, Ochilova Dilfuza Nematovna

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida monologik nutqni shakllantirishda savod oʻrgatish, matn bilan ishlash va audiovizual vositalarning ahamiyati ..................451
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, Axmadjonova Dilroz Abdulaxad qizi

Raqamlashtirish sharoitida talabalarda korrupsiyaga nisbatan intolerant madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari..................456
Axmedova Dilnora Kobiljonovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida steam texnologiyasidan foydalanishning amaliy asoslari ......................460
Boltayeva Nasiba Ilhom qizi

Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi..................464
Bozorova Nigora Sodiqjon qizi

Kontekstli yondashuv orqali bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining lisoniy-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..................467
Eshoqulova Kamola Ibroximovna

Eshitishida nuqsoni boʻlgan o ‘quvchilar muloqot koʻnikmalarini shakllantirish texnologiyalari .....................471
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi

Talabalik davrida oʻquv faoliyatidan qoniqqanlik va lokus nazorat oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari..................474
Joʻrayeva Iqbolxon Poʻlatovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yoʻl harakati xavfsizligi kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi ..................479
Jumayev Yunus Rashidovich

# MAKTABGA TAYYORLOV YOSHIDA AQLIY TARBIYALASHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ziyodullayeva Ruxshona O'ral qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ismoilov Bobur Tohirovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash jarayonida didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Didaktik o'yinlarning bolalarda bilish jarayonlari, ya'ni diqqat, xotira, tafakkur va tasavvurni rivojlantirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Ushbu o'yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarining shakllanishi yoritiladi. Maqolada didaktik o'yinlarni ta'lim jarayonida samarali qo'llash usullari ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** bola, didaktik o'yin, aqliy tarbiya, maktabga tayyorlov yoshi, tafakkur, diqqat, xotira, tasavvur, mantiqiy fikrlash, ta'lim jarayoni, pedagogik faoliyat, bolalar rivojlanishi.

**Abstract:** This article highlights the role and importance of didactic games in the process of intellectual development of preschool children. The role of didactic games in developing cognitive processes such as attention, memory, thinking, and imagination in children is scientifically substantiated. It also explains how these games contribute to the formation of logical thinking, independent decision-making, and problem-solving skills. The article further analyzes effective methods of applying didactic games in the educational process.

**Key words:** child, didactic game, intellectual development, preschool age, thinking, attention, memory, imagination, logical thinking, educational process, pedagogical activity, child development.

**Аннотация:** В данной статье освещаются роль и значение дидактических игр в процессе умственного воспитания детей дошкольного возраста. Научно обосновывается влияние дидактических игр на развитие познавательных процессов у детей, таких как внимание, память, мышление и воображение. Также раскрывается, как с помощью этих игр формируются навыки логического мышления, самостоятельного принятия решений и решения проблемных ситуаций. В статье анализируются эффективные методы применения дидактических игр в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** ребенок, дидактическая игра, умственное воспитание, дошкольный возраст, мышление, внимание, память, воображение, логическое мышление, образовательный процесс, педагогическая деятельность, развитие детей.

## KIRISH

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash ularning kelajakdagi ta'lim faoliyatida muvaffaqiyat qozonishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu yosh davrida bolalarda bilish jarayonlari, ya'ni diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur jadal rivojlanadi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali pedagogik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabga tayyorlov yoshi, ya'ni 6-7 yosh davri bola psixik rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning psixologik holati sezilarli darajada o'zgarishlarga uchraydi va u asta-sekin maktab hayotiga moslasha boshlaydi. Eng avvalo, bu yoshda bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi keskin ortadi. U atrof-muhitni o'rganishga, savollar berishga, hodisalarning sababini bilishga intiladi. Bu esa tafakkur jarayonlarining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Bu yoshda bolalarda diqqatning barqarorligi asta-sekin oshadi. Agar kichik yoshda diqqat tez chalg'isa, bu davrda bola ma'lum vaqt davomida bir faoliyatga e'tiborini jamlay oladi. Shu bilan birga, xotira ham rivojlanib boradi, ayniqsa obrazli va ixtiyoriy xotira shakllana boshlaydi. Bola ma'lumotni faqat tasodifan emas, balki ongli ravishda eslab qolishga harakat qiladi, tafakkur konkret-obrazli shakldan mantiqiy fikrlashga o'tish jarayonida bo'ladi. Bola narsalarni solishtirish, umumlashtirish, tahlil qilish kabi aqliy operatsiyalarga asta-sekin o'rganadi. Shu bilan birga, tasavvur ham rivojlanib, bola o'yin jarayonida turli rollarni ijro etadi va o'ziga xos hayotiy vaziyatlarni yaratadi.

6–7 yoshdagi bolalarda emotsional soha ham sezilarli rivojlanadi. Ular o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq ifodalay boshlaydi, lekin ba'zida hissiy beqarorlik ham kuzatiladi. Bu davrda bola kattalarning e'tiboriga va qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'ladi. O'ziga bo'lgan ishonch shakllana boshlaydi, bu esa uning faoliyatdagi muvaffaqiyatlari va atrofdagilarning munosabati bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, ijtimoiylashuv jarayoni kuchayadi. Bola tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, hamkorlikda o'ynashni o'rganadi, qoidalar va tartiblarga rioya qilishni o'zlashtiradi. Bu esa uning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq rivoji ham ushbu yoshda sezilarli darajada takomillashadi. Bola o'z fikrlarini aniq va izchil ifoda etishga harakat qiladi, so'z boyligi kengayadi, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishga intiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashda didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar didaktik o'yinlar bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, tafakkur jarayonlarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Xususan, Lev Vygotsky o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida o'yin faoliyatini bolaning psixik rivojlanishida yetakchi omil sifatida baholaydi. Unga ko'ra, o'yin jarayonida bola kattalar faoliyatini modellashtiradi va yangi bilim hamda ko'nikmalarni egallaydi. Didaktik o'yinlar aynan shu jarayonda bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytirishga xizmat qiladi.

Jean Piaget tadqiqotlarida esa bolalarning aqliy rivojlanishi bosqichma-bosqich kechishi va o'yin faoliyati orqali ular atrof-muhitni faol o'zlashtirishi ta'kidlanadi. Piaget fikricha, didaktik o'yinlar bolalarning mantiqiy fikrlashini, tasavvurini va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, maktabga tayyorlov yoshida o'yin orqali o'rganish bolalar uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Pedagogika fanida didaktik o'yinlarning ta'limiy ahamiyati Konstantin Ushinsky tomonidan ham alohida ta'kidlangan. U o'yin orqali ta'lim berish bolalarning tabiiy ehtiyojlariga mos kelishini va bilimlarni oson o'zlashtirishga yordam berishini qayd etadi. Shuningdek, Anton Makarenko o'yin faoliyatini tarbiya vositasi sifatida ko'rib, jamoaviy o'yinlar bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishini ta'kidlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham didaktik o'yinlarning ahamiyati keng yoritilgan bo'lib, ular bolalarning diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Maktabgacha ta'limga oid ilmiy adabiyotlarda didaktik o'yinlar orqali bolalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, o'yin jarayonida bolalarning emotsional holati ijobiy bo'lishi ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Mahalliy pedagog olimlarning ishlarida ham maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashda didaktik o'yinlardan foydalanishning metodik asoslari ishlab chiqilgan. Ular didaktik o'yinlarni ta'lim jarayoniga maqsadli va tizimli ravishda kiritish zarurligini, o'yin mazmuni bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar.

Didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Didaktik o'yinlar o'zining mazmuni va tuzilishiga ko'ra bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi hamda o'yin jarayonida o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bolalar o'yin davomida qiziqish bilan faol ishtirok etadi, bu esa ularning bilish faolligini oshiradi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlash, solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalar shakllanadi. O'yin jarayonida bola muammoli vaziyatlarni hal qilishga harakat qiladi, bu esa mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, didaktik o'yinlar bolalarning nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish va muloqot madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya jarayonida didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyatini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu o'yinlar orqali bolalar bilimni oson va qiziqarli tarzda o'zlashtiradi, o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi.

Didaktik o'yinlar 6–7 yoshli bolalarda tartib-intizom, qoidalarga rioya qilish va chegaralarni anglashni shakllantirishda juda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Bu o'yinlar maxsus ishlab chiqilgan qoidalar asosida tashkil etilgani uchun bola o'yin jarayonida tabiiy ravishda tartibga rioya qilishni o'rganadi.

Avvalo, har qanday didaktik oʻyinda aniq qoida boʻladi. Bola oʻyin boshlanishidan oldin ushbu qoidalar bilan tanishtiriladi va oʻyin davomida ularga amal qilish talab etiladi. Bu jarayon bolaning "kutish", "navbat bilan harakat qilish", "topshiriqni ketma-ket bajarish" kabi muhim koʻnikmalarini shakllantiradi. Natijada bola oʻz xatti-harakatlarini boshqarishni oʻrganadi va impulsiv harakatlar kamayadi.

Bundan tashqari, didaktik oʻyinlar bolaga chegaralarni tushunishni oʻrgatadi. Ya'ni, u "mumkin" va "mumkin emas" degan tushunchalarni anglashni boshlaydi. Oʻyin davomida qoidalarga rioya qilgan bola muvaffaqiyatga erishadi, qoidani buzgan bola esa natijada xatolikni koʻradi. Bu esa bolada sabab-oqibat bogʻliqligini tushunishga yordam beradi va oʻz xatti-harakatlarini nazorat qilish koʻnikmasini rivojlantiradi.

Tartib-intizom ham aynan oʻyin jarayonida shakllanadi. Bola oʻyin qoidalariga rioya qilish orqali umumiy tartibga amal qilishni oʻrganadi. Masalan, navbat kutish, boshqalarni tinglash, oʻz vaqtida topshiriqni bajarish kabi odatlar asta-sekin kundalik hayotga ham koʻchadi. Bu esa bolaning ijtimoiy muhitga moslashishini osonlashtiradi.

Bundan tashqari, didaktik oʻyinlar bolada oʻzini boshqarish hamda irodaviy sifatlarini rivojlantiradi. Bola oʻyin qoidalariga amal qilish uchun ba'zan oʻz istaklarini kechiktirishga toʻgʻri keladi, bu esa irodaviy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Masalan, oʻz navbatini kutish yoki tezroq javob berish istagini nazorat qilish kabi holatlar bunga misol boʻla oladi.

Pedagog yoki tarbiyachi bu jarayonda muhim rol oʻynaydi. U oʻyin qoidalarini aniq tushuntirishi, ularni doimiy ravishda eslatib turishi va bolalarni ragʻbatlantirishi lozim. Shuningdek, qoidalarni buzgan bolaga toʻgʻri va muloyim tarzda tushuntirish berish orqali uning xulqini toʻgʻrilash mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashda didaktik oʻyinlarning oʻrni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan boʻlib, unda kompleks yondashuv asosida turli ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlar uygʻun holda qoʻllanildi.

**Nazariy metodlar** sifatida pedagogik hamda psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash hamda tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali didaktik oʻyinlarning mazmuni, turlari va ularning aqliy rivojlanishga ta'siri oʻrganildi.

**Amaliy metodlar** doirasida kuzatish, suhbat, tajriba-sinov, eksperiment va diagnostik metodlardan foydalanildi.

**Kuzatish metodi** yordamida bolalarning oʻyin jarayonidagi faoliyati, diqqat darajasi, mustaqil fikrlashi va topshiriqlarni bajarish xususiyatlari oʻrganildi. Suhbat metodi orqali tarbiyachilar va bolalar bilan muloqot qilinib, didaktik oʻyinlarga boʻlgan munosabat va qiziqish darajasi aniqlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda, ya'ni aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarda olib borildi:

1. **Aniqlovchi bosqich**da bolalarning aqliy rivojlanish darajasi dastlabki holatda baholandi.
2. **Shakllantiruvchi bosqich**da esa maxsus ishlab chiqilgan didaktik oʻyinlar tizimi ta'lim jarayoniga joriy etildi.

Tadqiqot davomida bolalarning tafakkur, xotira, diqqat va nutq rivojidagi oʻzgarishlar muntazam ravishda kuzatib borildi. Natijalarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, sifat va miqdoriy baholash usullaridan foydalanildi. Bu esa didaktik oʻyinlarning samaradorligini aniq va asosli baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashda didaktik oʻyinlarning muhim pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Dastlabki aniqlovchi bosqichda oʻtkazilgan kuzatishlar natijasida bolalarning aksariyatida diqqatning barqaror emasligi, topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklar va mustaqil fikrlashning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi.

Shakllantiruvchi bosqichda didaktik oʻyinlar tizimli ravishda qoʻllanilgach, bolalarda sezilarli ijobiy oʻzgarishlar aniqlandi. Xususan, bolalarning diqqatni jamlash qobiliyati oshdi, ular topshiriqlarni aniq va tez bajarishga oʻrgandi. Oʻyin jarayonida bolalarning mantiqiy fikrlashi, solishtirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish koʻnikmalari rivojlandi.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, didaktik oʻyinlar orqali tashkil etilgan mashgʻulotlar bolalarning oʻquv faoliyatiga boʻlgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Ayniqsa, oʻyin asosida berilgan topshiriqlar bolalar tomonidan oson va qiziqarli qabul qilinib, bilimlarni samarali oʻzlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, oʻyin faoliyati jarayonida bolalarning nutq faolligi ortgani, soʻz boyligi kengaygani va oʻz fikrini erkin ifodalash qobiliyati rivojlangani kuzatildi. Bu esa didaktik oʻyinlarning nafaqat aqliy, balki nutqiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir koʻrsatishini tasdiqlaydi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan didaktik o'yinlar yanada yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Har bir bolaning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish orqali ularning faolligi oshdi va ta'lim jarayonida ishtiroki yaxshilandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari didaktik o'yinlardan maqsadli hamda tizimli foydalanish maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi. Bu esa didaktik o'yinlarni maktabgacha ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qo'llash zarurligini asoslaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar bolaning nutqi, mantiqiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagog va ota-onaning to'g'ri tashkil etilgan yondashuvi esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Umuman olganda, didaktik o'yinlar maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda, ularni maktab ta'limiga tayyorlashda hamda shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan samarali vosita hisoblanadi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashda didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonining eng samarali va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirib, ularning diqqat, xotira, tafakkur va nutq faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin faoliyati orqali bolalar yangi bilimlarni qiziqish bilan o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar bolalarda o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantiradi va ularni maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, o'yin asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'lib, bolalarning faolligi va ishtirokini sezilarli darajada oshiradi.

**Tavsiyalar:**

1. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan muntazam va maqsadli foydalanish tavsiya etiladi.
2. Didaktik o'yinlar mazmunini bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tanlash zarur.
3. O'yin jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.
4. Tarbiyachilar uchun didaktik o'yinlarni to'g'ri tashkil etish bo'yicha metodik seminar va treninglarni tashkil etish lozim.
5. O'yin faoliyatini an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi.
6. Har bir bolaning rivojlanish darajasini doimiy kuzatib borish va natijalarga ko'ra individual yondashuvni qo'llash tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. - Toshkent, 2020.
2. Qodirov A. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. G'oziev E. G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Abdullayeva Sh. A. Maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatining pedagogik ahamiyati. - Toshkent: O'qituvchi, 2017.
5. Xoliqova M. Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda o'yin metodlari. - Toshkent: Ilm-fan, 2018.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(3)**


© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.